

SUGGESTIV NUTQIY AKTLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Yusupova Shahzoda Tohirjon qizi,

"TIQXMMI" MTU

O'qitish nazariyasi va metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Maqolada suggestiv nutq aktlarining illokutiv aktlar tarkibidagi o'rni va ularning perspektiv aktlardan farqli xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: nutq aktlari, direktiv aktlar, suggestiv nutq aktlari, perspektiv nutq aktlari.

Аннотация. В статье рассматривается место suggestивных речевых актов в структуре иллокутивных актов, а также освещаются их отличительные особенности по сравнению с перспективными речевыми актами.

Ключевые слова: речевые акты, директивные речевые акты, suggestивные речевые акты, перспективные речевые акты.

Abstract. The article examines the place of suggestive speech acts within the structure of illocutionary acts and highlights their distinctive features in comparison with perspective speech acts.

Keywords: speech acts, directive speech acts, suggestive speech acts, perspective speech acts.

Kirish. Nutqiy aktlar nazariyasi lingvopragmatikaning yetakchi masalalaridan biri sanaladi. Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda – gap) asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmuni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir.[1.80]

Adabiyotlar tahlili. Pragmalingvistikada nutqning faoliyat shakli sifatidagi mohiyatini tahlil qilish asosida nutqiy aktlar nazariyasi haqidagi qarashlar vujudga keldi. Nutqiy aktlar nazariyasi til orqali bajariladigan harakatlarni o'rganishni ko'zda tutib, muloqotda "nima deyilgan" degan savolga javob berish bilan birga, bu lisoniy harakatning qanday amalga oshirilganiga ham e'tibor qaratila boshlandi. Nutqiy aktning tarkibiy qismlari sifatida J.Ostin uch komponentni: lokutiv akt (so'zlash akti), illokutiv akt (so'zlovchi niyati akti) va perlokutiv akt (nutqiy ta'sir etish akti)ni keltirib o'tadi.[4. 93] J.Serl va M.Hakimovlar esa to'rtinchi tarkibiy qism – propozitsional akt ham mavjud ekanligini e'tirof etadilar.[3.40] Bu komponentlarning barchasi bir vaqtda ro'yobga chiqib, bir nutqning turli jihatlarini ifoda etadi. Lokutiv akt talaffuz akti hisoblanib, nutqni to'g'ri talaffuz qilish ushbu aktning asosini tashkil qiladi. Illokutiv akt so'zlovchining nutqni yaratishdan, lisoniy vositalarni qo'llashdan maqsadini, niyatini ifodalash vazifasini bajaradi. Propozitsional akt nutq tarkibidagi fikr, uning mazmun-mohiyatidir. Perlokutiv akt esa lisoniy vositalar yordamida ta'sir etish akti sanaladi va bu akt orqali tinglovchining his-tuyg'ulari, o'y-fikrlari, harakatiga ma'lum ma'noda ta'sir etish ko'zda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot suggestiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan bo'lib, pragmalingvistika va nutqiy

aktlar nazariyasiga tayanadi. Tadqiqotda J. Ostin va J. Syerlning nutqiy aktlar haqidagi qarashlari metodologik asos sifatida olingan.

Ishda tavsifiy, qiyosiy va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida suggestiv nutqiy aktlarning direktiv aktlar tizimidagi o'zni va ularning bilvosita ta'sir xususiyatlari o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Zamonaviy tilshunoslikda nutqning funksional tabiati, kommunikativ imkoniyatlari, ijtimoiy ong va ruhiyatga ko'rsatuvchi ta'sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Nutq yordamida inson xatti-harakatlarini boshqarish, omma ruhiyati va kayfiyatiga ta'sir ko'rsatish ham nazariy, ham amaliy nuqtayi nazardan tildagi nutqiy aktlar, xususan, direktiv aktlar tarkibiga kiruvchi suggestiv nutq harakatlarining o'rganilishini talab qiladi.

Til muloqotni ta'minlovchi asosiy vosita bo'libgina qolmay, shaxs ongi va irodasini muayyan yo'nalishda boshqarishga qodir kuchli ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Aynan shu jihat nutqiy ta'sirning mantiqiy asoslarini aniqlash, uning til vositalari yordamida namoyon bo'lish xususiyatlarini yoritishni bugungi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biriga aylantiradi. Ayniqsa, suggestiv nutqiy aktlarning, ya'ni retsiyentni biror harakatga undash, ma'lum xatti-harakatni amalga oshirishga majbur qilish yoki boshqarish harakatining pragmatik xususiyatlarini aniqlash tilning ongga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatidagi qudratini tahlil qilish imkonini beradi.

“Nutqiy ta'sir jarayoni “illokutsiya – lokutsiya – perlokutsiya” sxemasiga to'g'ri keladi, shuning uchun bu hodisa nutq aloqasining barcha asosiy tarkibiy qismlarida – “adresant”, “matn” va “adresat” komponentida mavjud”. [5.10] Lokutiv aktda nutqiy ta'sir adresant tomonidan til birliklarining tanlanishi orqali yuzaga chiqadi. Bu bosqichda fonetik, leksik, grammatik va uslubiy vositalar ta'sirchanlik nuqtayi nazaridan shakllantiriladi. Ilokutiv akt adresantning kommunikativ niyati bilan bog'liq bo'lib, nutqning buyurish, ishontirish, ogohlantirish, undash yoki taqiqlash kabi funksional yo'nalishlarini belgilaydi. Bunda nutqiy ta'sir adresant komponentida markaziy o'rin egallaydi, chunki illokutsion kuch so'zlovchining maqsadi va strategiyasiga bog'liq holda shakllanadi. Perlokutiv akt esa nutqiy ta'sirning real natijasini, ya'ni adresat ongida yuzaga keladigan ruhiy o'zgarishlarni ifodalaydi. Perlokutiv aktda nutqiy ta'sir adresat komponentida namoyon bo'ladi va uning samaradorligi adresatning individual tajribasi, bilimlari va psixologik holatiga bog'liq bo'ladi.

Har qanday nutqni so'zlashdan ma'lum maqsad, niyat ko'zda tutiladi. So'zlovchi o'z niyatini lisoniy vositalar orqali ochiq yoki yashirin tarzda ifoda qiladi va illokutiv akt yuzaga chiqadi, illokutiv akt orqali biror fikr bildirish yoxud lisoniy vositalarni qo'llashdan ko'zda tutilgan maqsad, mazmun anglashiladi.

Ilokutiv aktning o'zi ham bir necha qismlardan tashkil topgani e'tirof etiladi. J.Serl illokutiv aktning komponentlari sifatida reprezentativ (assertiv) akt, direktiv akt, komissiv akt, ekspressiv akt va deklarativ aktlarni keltiradi. Reprezentativ akt bayonot, izoh, tavsif

kabi aktlarni o'z ichiga oladi. Direktiv akt adresatni harakatga keltirishga yo'naltiruvchi (masalan, buyruq, iltimos, maslahat kabi) akt bo'lsa, komissiv akt va'da, majburiyat mazmunli nutq harakatlaridan tashkil topadi. Ekspressiv nutqiy akt hissiy holatni ifodalovchi (afsuslanish, minnatdorchilik kabi) aktlar, deklarativ akt ijtimoiy holatni o'zgartiradigan (lavozimga tayinlash, jazolash) aktlardir.

Mazkur tasnifda suggestiv nutq uchun xos bo'lgani direktiv aktlar sanaladi. Ushbu nutqiy harakatlar suggestiv nutqning asosini tashkil etadi. Direktiv nutqiy aktlar so'zlovchining tinglovchidan qandaydir harakatni amalga oshirishini kutishni anglatuvchi, retsiyentni ma'lum harakatga yo'naltiruvchi aktlar hisoblanadi. Direktivlar orqali so'zlovchi o'z niyatini tinglovchiga bildirib, undovchi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, *Iltimos, eshikni yoping* gapida direktiv nutqiy harakatlardan sanalgan iltimos nutqiy akti yuzaga chiqadi, so'zlovchi tinglovchidan harakatni amalga oshirishni so'raydi. Direktivlarning ta'sir ko'rsatish jihatlari xususida J.Serl shunday fikrlarni bildiradi: "Shuningdek, hamkoriga ta'sir ko'rsatish yetakchi xususiyat bo'lgan nutq harakatining bir turi mavjud. Bularga direktiv nutq aktlari kiradi, ularning maqsadi "tinglovchini biror narsa harakatni bajarishga undash" sanaladi.[6.182] J.Ostin tomonidan ilgari surilgan nutqiy aktlar nazariyasi va J.Serlning illokutiv aktlar tasnifi suggestiv aktlarning til tizimidagi o'rni aniqlashga turtki bo'ldi. Ushbu nazariy qarashlarga tayanib aytish mumkinki, nutq orqali amalga oshiriladigan undash, buyruq, iltimos, maslahat singari aktlar pragmatik maqsadga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tilning bu kabi harakatga yo'naltirilgan ko'rinishlari ijtimoiy kontekst, nutq odobi va so'zlovchi hamda tinglovchi munosabatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Direktiv aktlarda ham, boshqa nutqiy aktlar singari, so'zlovchining kommunikativ maqsadi borliq – so'z munosabatiga asoslangan holda so'zlashuvchilarning psixologik holatiga bog'liq tarzda xohish, istak kabi parametrlar asosida ifodalanadi.[3.89] Direktiv nutqiy aktlarning illokutiv ta'siri so'zlovchining tinglovchini biror harakatni amalga oshirishga undashi orqali namoyon bo'ladi. S.Belyayeva direktiv aktlarni uch guruhga tasniflaydi: adresat harakatlarini belgilovchi perspektivlar (buyruq, ruxsat, taqiq, ko'rsatma, buyurtma); so'zlovchining manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan harakatni rag'batlantiradigan rekvestivlar (so'rov, iltimosnoma va taklifnoma); maslahatni bildiruvchi suggestivlar (maslahat, taklif va ogohlantirish).[7.15-20]

Ch. Kreidler direktiv nutq aktlarini uch toifaga ajratadi: buyruqlar, so'rovlar va maslahatlar. Buyruqlar gapiruvchining tinglovchi ustidan nazoratini anglatadi va ularga farmoyishlar, talablar va taqiqlar kiradi. So'rovlar esa so'zlovchining tinglovchi u uchun qandaydir harakatni amalga oshirishiga "umid bildirishini" ifodalovchi nutq shakllari bo'lib, ular iltimos, umid va istak kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, maslahatlar so'zlovchi o'z tavsiyalarini yoki fikrlarini taklif qiladigan yoki boshqalardan qandaydir masala yuzasidan maslahat yoki fikr berishni so'raydigan nutq shakllari bo'lib, ularga tavsiyalar, fikr bildirish va maslahatlar kiradi.[8]

A. Keyt direktiv nutq aktlarini bajarilish shartlari, samimiyligi va boshqa tegishli shartlar, shuningdek, illokutiv kuchlar nuqtayi nazaridan o'rganib, ularni so'rovlar, savollar, talablar va taqiqlarga ajratgan.[9] U. Alston ham direktiv nutq aktlarini tasniflagan bo'lib, ularga so'rovlar, iltimoslar, buyruqlar, taqiqlar, maslahatlar, tavsiyalar, takliflar va talablarni kiritgan.[10] X.Klark va T.Karlson esa direktiv nutq aktlarini tavsiflash uchun "birgalikdagi harakatlar" (joint act) tushunchasini taklif qilgan. Bunda birgalikdagi harakatlar muloqot maqsadiga erishish uchun ongli ravishda muvofiqlashtirilgan harakatlar deb izohlanadi.[11] P.Braun va S.Levinson direktiv nutq aktlaridan foydalanish tinglovchining "ijtimoiy yuz"iga tahdid solishi mumkinligini ta'kidlaydilar, bu esa xushmuomalalik bilan chambarchas bog'liqdir.[12]

Ko'rib chiqilgan tasnif tizimlari doirasida suggestiv nutq aktlari direktiv aktlar tarkibiga kiradi va bu ijobiy harakatga noaniq undovchi, shu bilan birga, harakatning bajarilishi istalganligini bildiruvchi vaziyatdir. Bunda harakatni bajarish adresat (tinglovchi) uchun majburiy emas. Bu jarayonda kommunikantlarning maqomi (statusi) hamda muloqot vaziyati muhim rol o'ynaydi. Suggestiv nutq aktlari direktivlar ichida eng kam ziddiyatli shakllardan biri hisoblanadi, chunki ularning amal qilinishi adresatga xulq-atvor strategiyalarini tanlashda erkinlik berilishi bilan bevosita bog'liqdir.[13.191-195]

L.Shorina suggestiv nutqiy aktlar tarkibiga maslahat, ogohlantirish, tavsiya, takliflar kiritilishini ta'kidlaydi. Suggestiv nutqiy aktlarni birlashtiruvchi xususiyatlar sifatida adresat uchun topshiriqning amalga oshirilishi majburiy emasligi, amalga oshiriluvchi harakat adresat uchun foydali bo'lishi va so'zlovchining maqomi ustuvorligini keltirib o'tadi.[14.8] Ko'rinadiki, suggestiv nutq aktlari muloqot jarayonida tinglovchini ma'lum harakatga undashni ko'zda tutgan holda amalga oshiriladi. Biroq bu undash qat'iy buyruq yoki talab shaklida emas, balki bilvosita ifodalanadi. Bu jarayonda so'zlovchi harakatning amalga oshirilishini istayotganini bildiradi va uni bajarishning ijobiy natijalariga ishora qiladi, ya'ni, suggestiv nutq aktlari majburiylik xususiyatiga ega emas, ularning bajarilishi adresat ixtiyoriga bog'liq bo'ladi. Muloqotning o'zi esa har doim ma'lum ijtimoiy, madaniy va kommunikativ sharoitlarda yuzaga keladi. Bu sharoitlar muloqotdan ko'zlangan pragmatik maqsadning qanday vositalar bilan yuzaga chiqishini belgilaydi. Shu bois suggestiv nutq aktlarini o'rganishda muloqotning kontekstual omillari, ya'ni ishtirokchilarning maqomi, ularning o'zaro munosabatlari, muloqot shakli va maqsadini hisobga olish ahamiyatli sanaladi. Demak, suggestiv aktlar adresatni nisbatan xolisona, ixtiyoriy harakatga undashga qaratilgan harakatlar sifatida muloqotda nutqiy etiket, ijtimoiy yoki psixologik omillar bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Suggestiv nutqda suggestiv nutq aktlari alohida ahamiyat kasb etadi, biroq suggestiv nutqning ayrim turlarida, xususan, klassik gipnozda perspektivlar keng qo'llanadi.

Hozir sekin-asta yengillik kirib kelmoqda. Endi ko'z'laringizni to'liq yuming. Hozir siz tinch holatdasiz. Endi uch marta burun orqali chuqur nafas oling. Keyin odatdagidek nafas olishni davom ettiring. Endi yana biroz chuqur nafas oling. Burun orqali havoni

kiriting, sekin chiqarib yuboring. Nafas chiqqanda, tanangizdagi har qanday tashvish va bosim ham chiqib ketayotganini his eting (“Saodat nuri” Xalqaro gipnoz maktabi Youtube ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasidan//<https://www.youtube.com/@saodatnuripsixologiyamakta2892/videos>).

Buyruq va ko‘rsatmalar berish tinglovchi, ya’ni gipnoterapiya olayotgan bemorga harakatlarni aniq va to‘g‘ri amalga oshirishi uchun zarur sanaladi. Ko‘rsatma to‘g‘ri va aniq berilmasa, bemor muolaja jarayonida o‘zini qanday tutish, qanday harakatlanish, qanday nafas olishni aniq bilmaydi va noto‘g‘ri harakatlar sabab gipnoterapiya ta’siri susayishi mumkin. Shuning uchun ham so‘zlovchining perspektiv nutq aktlaridan foydalanib buyruq va ko‘rsatmalar berishi muolaja jarayonining muvaffaqiyatli ta’sirini ta’minlaydi.

Klassik gipnozda buyruqlar berilishi tabiiy sanalsa-da, zamonaviy gipnoz nutqida buyruqlar suggestiv nutq aktlari yordamida implitsit tarzda amalga oshiriladi. Masalan, quyidagi parchada gipnoterapevt to‘g‘ridan to‘g‘ri buyruq bermay, tanada kechayotgan jarayonlar tabiiydek ongostiga singdiriladi:

Yelkangiz bo‘shashdi, qo‘llaringiz yengillashdi.

Yuzingiz, peshonangiz, bo‘yin mushaklari ham to‘liq bo‘shashmoqda.

Tashqi dunyo bilan aloqangiz asta-sekin uzilmoqda.

Atrofdagi tovushlar uzoqlashib bormoqda.

Siz hech narsaga bog‘lanmagan holga kelyapsiz.

Endi qalbingizdagi hissiyotlar sekin-asta yoyilib, bir butun bo‘lmoqda.

O‘zingizni keng makonda, yorug‘ bir bo‘shliqda his qilaysiz.

Bu bo‘shliq juda yoqimli.

Ichingizda tinchlik, osoyishtalik, yengillik bor (“Saodat nuri” Xalqaro gipnoz maktabi Youtube ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasidan//<https://www.youtube.com/@saodatnuripsixologiyamakta2892/videos>).

Klassik gipnozda tanani bo‘shashtirish, tashqi shovqinlardan uzilish kabi holatlar buyruq tarzida berilsa, gipnozning zamonaviy turlarida bu buyruq tasdiq yoki hukm shaklida, tinglovchida bu jarayon allaqachon yuz bergandek shaklda taqdim qilinadi. Bu ham ong qarshiligini kamaytirish, tinglovchini ishontirish maqsadida amalga oshiriladi. Aslida *yuzingiz, peshonangiz, bo‘yin mushaklarini bo‘shashtiring, tashqi dunyo bilan aloqangizni uzing, o‘zingizni keng makonda, yorug‘ bir bo‘shliqda his qiling* tarzida taqdim qilinishi kerak bo‘lgan buyruqlar yumshatilgan, yashirin holda beriladi. Bunda suggestiv nutq aktlarining pragmatik xususiyatlari yaqqol aks etadi.

Muloqotda harakatga undovchi aktlarning pragmatik mohiyatini ochib berishda kommunikativ niyat ularning strukturaviy qurilishidan ko‘ra ahamiyatliroq sanaladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, suggestiv nutqiy aktlar direktiv aktlarning yumshatilgan shakllaridan biri sifatida tilning inson xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatish funksiyasini yaqqol namoyon etadi. Suggestiv aktlarning asosiy pragmatik belgisi ular yordamida

tinglovchiga bevosita buyruq berilmay, retsipyentga ma'lum darajadagi ixtiyoriylik yuklangan holda harakatga undashdir. Suggestiv nutqiy aktlar, asosan, ijtimoiy tenglik asosida kechadigan muloqotda, murosaga keltirish ko'zda tutilgan, shuningdek, pragmatik strategiyalardan foydalanilgan kontekstlarda yuzaga chiqadi.

Suggestiv aktlar, boshqa direktiv aktlardan farqli o'laroq, so'zlovchining retsipyentga harakatni majburlab emas, balki ixtiyoriy tanlov asosida taklif etishini anglatadi. Ushbu aktlarning asosiy illokutsion mohiyati retsipyentni qandaydir harakatga ko'ndirish, uni biror faoliyatga undash yoki muayyan xatti-harakat tanlovini amalga oshirishga chorlash bilan belgilanadi. Ammo bu chorlov ochiq buyruq, keskin talab, mutlaq majburlash shaklida emas, ehtiyotkorlik, diplomatik yondashuv vositasida ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi *You might want to take an umbrella, it looks like rain* gapi shaklan maslahat tarzida ifodalansa-da, mazmunan retsipyentni harakatga undash, ya'ni yomg'ir yog'ishi ehtimoli sababli soyabon olish zarurligini nazarda tutadi. Bu kabi qurilmalar til vositasida shaxsga bevosita bosim o'tkazmasdan, balki ichki motivatsiyani rag'batlantirish asosida ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. O'zbek tilida ham *Ko'rib chiqishingiz foydadan xoli bo'lmasdi* kabi gaplar ochiq buyruq bermasdan, retsipyentni o'z ixtiyori bilan harakatga jalb etishga xizmat qiladi. Rus tilida *Вы не могли бы закрыть окно?* kabi iltimoslar muloyim so'rov shaklida yuzaga chiqib, harakatga undovchi illokutsion kuchni namoyon etadi.

Suggestiv nutq aktlari ko'p subyektlidir, chunki ular illokutsion harakatning muvaffaqiyatini belgilovchi subyekt sifatida adresatga qaratilgan. Shu sababli, suggestiv nutqiy aktning amalga oshirishda ma'ruzachining muloqot xulqi to'g'ridan to'g'ri muloyim xatti-harakatlar strategiyalariga bog'liq.[15.9] Bunday aktlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi maqom nisbatiga va ularning o'zaro munosabatiga bog'liq bo'lib, aynan shu jihatlar suggestiv aktlarning ijtimoiy lisoniy xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa. Suggestiv nutq esa bevosita va bilvosita suggestiv nutq aktlarini o'zida mujassam etadi, bunda tinglovchini ma'lum qaror qabul qilishga undash jarayoni, ko'pincha, to'g'ridan to'g'ri buyruqlarsiz, ko'rsatma yoki tanlov shaklida taqdim etiladi. Shu sababdan tinglovchida so'zlovchi tomonidan yo'naltirilgan qarorni majburlashsiz, o'z xohishi bilan qabul qilgandek tasavvur paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.
2. Турдиева Х. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол.фан.б.фалс. док. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2020.
3. Ҳакимов М. Нуткий актлар назарияси. – Фарғона, 2020.
4. Остин Дж. Слово как действие//НЗЛ. Вып. XVII. – Москва, 1986.
5. Шелестюк Е. Речевое воздействие: онтология и методология исследования: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Челябинск, 2009.
6. Серль Дж. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике / под ред. Б. Ю. Городецкого. – Москва: Прогресс, 1986. – Вып. 17: Теория речевых актов.

7. Беляева Е. И. Грамматика и прагматика побуждения: английский язык. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1992.
8. Kreidler C. Introducing English Semantics. – New York: Routledgeб 1998.
9. Keith A. Linguistic Meaning. – London: Routledge and Kegan Paul, 1986.
10. Alston W. Illocutionary Acts and Sentence Meaning. – Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press; Ithaca, London: Cornell University Press, 2000.
11. Clark H., Carlson T. Speech Acts and Hearer's Beliefs. – Oxford University Press, 1991.
12. Brown P., Levinson S. Politeness. Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
13. Крук Е. Специфика использования суггестивных речевых актов в англоязычном комическом дискурсе // Языковая личность и перевод. Материалы IV Международного научно-образовательного форума молодых переводчиков. – Минск, 2019. – С.191-195.
14. Шорина Л. Публичный директив и его место в системе речевых актов (на материале американского варианта английского языка и русского языка): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2007.
15. Гусейханова З. Когнитивно-прагматическая характеристика высказываний со значением
16. «предложение» и «совет» (на материале современного английского языка): Автореф.дисс. ...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2009.

